



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 10 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 10

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 10



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИБ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети


Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Шоҳистахон Улжаева ТАРИХИЙ ЙЎЛЛАР ЧОРРАҲАСИДА: АМИР ТЕМУР ВА ТЎХТАМИШХОН.....	5
2. Jummagul Abduraxmanova TOTALITAR TUZUM VA TA'LIM TIZIMIDAGI HOLAT (1925–1941 yillar).....	10
3. Гулнара Жолдасбаева ТНОГРАФИЧЕСКИЕ МОТИВЫ КАРАКАЛПАКСКОГО ГЕРОИЧЕСКОГО ЭПОСА «КОБЛАН».....	17
4. Dilshod Abdullayev 1946-1958-YILLAR O'ZBEKISTON SSRDA O'RTA MAXSUS TA'LIM TIZIMIDAGI VAZIYAT.....	23
5. Фарзия Ансорова ЗВАНИЯ И ДОЛЖНОСТИ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В ТРУДЕ «ТАЪРИХИ САЛИМЎЙ» МИРЗО МУХАММАДА САЛИМБЕКА.....	28
6. Faxriddin Yormatov O'ZBEKISTONDA NURONIYLARNI HAR TOMONLAMA QO'LLAB QUVVATLASHNING IJOBIY NATIJALARI.....	37
7. Шаходат Зайниддинова ОСОБЕННОСТИ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ, ПРОВЕДЕННЫХ В СИСТЕМЕ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ В ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	43
8. Muborak Matyakubova XIVA XONLIGIDA IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGI: IQTISODIY TARAQQIYOT OMILLARI.....	49
9. Diloram Ziyayeva IX-XII ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI. IJTIMOIIY, SIYOSIY-IQTISODIY HAYOTI. AJDODLARIMIZNING JAHON SIVILIZATSIYASI TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN ULKAN HISSASI.....	55
10. Farxod Ziyayev XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN SIYOSATI, UNING MOHIYATI VA OQIBATLARI. SIYOSIY QATAG'ONLIK.....	60
11. Shaxodat Ruzmatova XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA QO'QON XONLIGI AHOLISINING IJTIMOIIY TUZILISHI.....	65
12. Fotima Shirinova TURKISTONDA MUSTABID SOVET TUZUMIGA QARSHI QUROLI HARAKAT.....	71




UO'K: 94(575.1)

Faxriddin Yormatov,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
tarix kafedrasini mudiri. Tarix fanlari nomzodi, dotsent
faxriddin_yormatov@tues.uz

O'ZBEKISTONDA NURONIYLARNI HAR TOMONLAMA QO'LLAB QUVVATLASHNING IJOBIY NATIJALARI

For citation: Faxriddin Yormatov. POSITIVE RESULTS OF COMPREHENSIVE SUPPORT FOR ELDERLY PEOPLE IN UZBEKISTAN. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 10.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17548867>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan davrda nuroniylarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlab chiqilgan chora tadbirlar hamda erishilgan yutuqlar ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, o'tgan yillar mobaynida nuroniylarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida erishilgan yutuqlar bisyor ekanligi va bu kabi ezgu ishlar bundan keyin ham yuksalishi muqarrarligi xulosa qilingan.

KALIT SO'ZLAR: O'zbekiston, Prezident, qaror, Nuroniylar, ijtimoiy himoya, yolg'iz keksalar, mehnat faxriylari, xotira va qadrlash, turmush, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo.

Фахриддин Ёрматов,
кандидат исторических наук, доцент
заведующий кафедрой истории
Термезский университет экономики и сервиса
faxriddin_yormatov@tues.uz

ПОЛОЖИТЕЛЬНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ВСЕСТОРОННЕЙ ПОДДЕРЖКИ ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен научный анализ разработанных программ мер и достижений в области всесторонней поддержки молодежи Узбекистана с первых дней независимости до наших дней.

Также был сделан вывод о том, что за последние годы был достигнут значительный прогресс в оказании всесторонней поддержки просвещенным людям, и что такие благородные усилия неизбежно будут продолжать расти.

Ключевые слова: Узбекистан, Президент, указ, Нуронийлар, социальная защита, одинокие старики, ветераны труда, память и уважение, брак, Кашкадарья, Наманган, Сурхандарья.

Faxriddin Yormatov,
PhD in History, Associate Professor
Head of the Department of History
Termez University of Economics and Service
faxriddin_yormatov@tues.uz

POSITIVE RESULTS OF COMPREHENSIVE SUPPORT FOR ELDERLY PEOPLE IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article provides a scientific analysis of the measures developed and achievements in the field of comprehensive support for the olders in Uzbekistan from the first years of independence to the present day.

It was also concluded that significant progress has been made in providing comprehensive support to the enlightened over the past years, and that such noble efforts will inevitably continue to grow.

Index Terms: Uzbekistan, President, decree, the olders, social protection, single olders, labor honors, memory and respect, marriage, Kashkadarya, Namangan, Surkhandarya.

1. Долзарблиги:

O'zbekistonda barcha sohalardagi amalga oshirilayotgan tub islohotlar avvalo insonni ulug'lashga, uning sha'ni, qadr-qimmatini yanada oshirishga, huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qilishga qaratilyotganligi bilan ahamiyatlidir. Birinchi galda, yohi ulug' nuroniy otaxon va onaxonlarimizga hurmat-e'tibor va mehr-oqibat ko'rsatish, salomatliklarini asrash, munosib turmush sharoitlarini yanada yaxshilash maqsadida davlatimizning mavjud me'yoriy-huquqiy bazasi yanada takomillashib, ko'pgina qonun hujjatlari qabil qilindi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda aholini ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish, ayniqsa aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismi va nuroniy otaxon va onaxonlarimizga yetarli darajada shart-sharoitlar yaratib berish masalasi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

2. Методлар ва ўрганилганлик даражаси:

1991 yilning oxirida respublika bo'yicha 30573 nafar yolg'iz qariyalar istiqomat qildilar[1]

Ularga malakali ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimi XX asrning 90-yillari boshlarida hali shakllanmagan edi. Mavjud "Mehribonlik va salomatlik", "Tinchlik", urush va mehnat faxriylari fondi, karlar, ko'rlar, "Baynalmilalchilar, Chernobilchilar" kabi o'nlab fondlar faoliyati esa muvofiqlashtirilmagan edi. Mazkur fondlar o'rtasidagi nomutonositlikni bartaraf etish, faxriylar, qariyalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 1996 yil 4 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston faxriylarini qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi to'g'risida" gi Farmoni e'lon qilindi. Farmonda faxriylar va nogironlarning moddiy sharoitini yaxshilash, ular uchun belgilangan imtiyozlarning, nafaqa to'g'risidagi qonunchilikning to'la, o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash, keksalar, yordamga muhtojlarga ijtimoiy yo'naltirilgan yordam ko'rsatish yo'llari belgilandi. [2]

Urush va mehnat faxriylari, yolg'iz keksalar va nogironlarga moddiy, ma'naviy, tibbiy yordam ko'rsatish, ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida 1995 yili fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning 50 yilligi arafasida urushda shahid bo'lgan va bedarak yo'qolgan 450 mingga yaqin O'zbekistonlik jangchilar xotirasini abadiylashtirish maqsadida 34 jildlik "Xotira" kitobi nashr etildi. Prezidentning 1994 yil 6 maydagi farmoniga muvofiq 109 ming urush qatnashchisi "Jasorat" va "Shuhrat" medallari bilan mukofatlandi. [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 7 sentyabrdagi "2007-2010 yillarda yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" [4] gi Qarori va 2007 yil 17

oktyabrdagi “Pensionerlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” [5] gi Farmonining bajarilishi ham tahlil etilgan. Jumladan, “Jarqo‘rg‘on-neft” ochiq aksiyadorlik jamiyatida uzoq yillar ishlab nafaqaga chiqqan 165 nafar faxriyga 6,5 mln. so‘m qo‘shimcha nafaqa berildi. [6]

Qashqadaryo viloyatida esa 1042 nafar yolg‘iz keksalar, pensioner va nogironlarning uylari ta‘mirlab berildi. 2014 yildan boshlab Mehnat vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligi BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda mamlakatda yolg‘iz keksalarga va nogironlarga professional ijtimoiy xizmat ko‘rsatish” loyihasini amalga oshirib kelmoqda. Ushbu loyiha ko‘magida “Keksalarni e‘zozlash yili” Davlat dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 avgustdagi 237-sonli “Keksalar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [7]gi qarori qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 5 fevraldagi 31-sonli “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi tizimining turg‘un davolash-profilaktika muassasalarida ovqatlanishni tashkil etish va uning uchun haq to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” [8]gi qaroriga ko‘ra I va II guruh nogironlari, bolalikdan nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan shaxslar hamda Chernobil AESidagi halokat oqibatlarini tugatishda qatnashgan nogiron shaxslar Tibbiyot muassasalarida ovqatlanish to‘lovidan ozod qilindi.

Bundan tashqari, 2016 yil 26 dekabrda O‘RQ-415-sonli “Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni[9] qabul qilindi. Ushbu qonun aholining ehtiyojmand toifalariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishning umumiy talablari va asosiy yo‘nalishlarini aniqlab olish, shuningdek, davlat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlari va tadbirkorlik sub‘ektlarining ushbu sohadagi roli va javobgarligini oshirish masalalarini belgilab berdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 sentyabrdagi “Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [10]gi qarorining imzolanishi ham yurtimizda keksalarga hukumat tomonidan qanchalik e‘tibor berilayotganining yorqin ifodasidir.

Yangi tizimning kiritilishi ijtimoiy yordamga muhtoj insonlar va ularning oilalarini izlab topish, ro‘yhatga olish va himoya qilish tizimini mukamallashtirdi. Xususan, 2016 yil mobaynida faqatgina Toshkent viloyatining o‘zida 200 dan ortiq yolg‘iz keksa yoshdagi fuqarolar ijtimoiy himoyaga olingan. Butun respublika bo‘yicha 17 mingdan ortiq yolg‘iz keksalar va nogironlar ijtimoiy xizmatlardan foydalanishyapdi. Loyihamning natijalarini davomiyligini ta‘minlash uchun harakatlar qilindi. Yolgiz keksa va nogironlarga g‘amho‘rlik qilish va ehtiyojlarini qondirish 2016-2020 BMTning O‘zbekistonga ko‘mak dasturiga va Barqaror Taraqqiyot Maqsadlar tarkibiga kirgan.

Nogiron va keksa insonlarni ijtimoiy hayotga jalb etish barqaror va adolatli jamiyatni shakllantirishning shartlariga kiradi. BMT Taraqqiyot dasturi barcha jabhalarni o‘zida mujassam etgan ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tizimini shakllantirishda ko‘mak beradi.

3. Tadqiqot natijalari:

Prezidentimizning “O‘zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroni” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4906-son Farmoni va 2016 yil 28 dekabrda “Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2705-son qarori va Namangan viloyati hokimining 2019 yil 13 dekabrda 07/34-3665 sonli xatiga muvofiq Namangan viloyat xalq ta‘limi boshqarmasi tomonidan ham bu borada xayrli va ezgu ishlar amalga oshirildi.

Avvalo, ta‘kidlash joizki, boshqarmada “Nuroni” boshlang‘ich jamoatchilik kengashi tuzilgan bo‘lib, bugungi kunda 2789 nafar nuroniylar ro‘yxatga olingan. Shundan 1807 nafarini ayollar tashkil etadi. “Xotira va Qadrlash kuni” munosabati bilan ana shunday ilmu ma‘rifat va

istiqlol yoʻlidagi faoliyati bilan qadr topgan ustoz-muallimlar, faxriy pedagoglar oilalariga yoʻqlovlar uyushtirildi. Nafaqadagi va ayni paytda ham sohada faoliyat olib borayotgan faxriylar holidan xabar olindi. Tizim boʻyicha “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan 1603 nafar faxriylarga 108 mln. 903 ming soʻmlik moddiy yordam koʻrsatildi.

Viloyat, tuman va shahar xalq taʼlimi boʻlimlarida, taʼlim muassasalarida uzoq yillar mehnat qilib, hozirda keksalik gashtini surayotgan faxriylarning 325 nafariga viloyat xalq taʼlimi boshqarmasining faxriy yorligʻi, tabriknoma va 25 mln. 802 ming soʻmlik esdalik sovgʻalari topshirildi.

Mehr, eʼtibor va eʼzoz qalblarga quvonch baxsh etib, koʻngillarni munavvar etuvchi ezgulik mayogʻidir. Ana shunday xayrli saʼy-harakatlar ifodasi sifatida yotib qolgan faxriylar va boshqa nuroniylerden 1160 nafarini uylariga umumtaʼlim maktablari, tuman (shahar) xalq taʼlimi boʻlimlari tomonidan yoʻqlovlar uyushtirilib, ular holidan xabar olindi. Ularga tabriknoma va 74 mln. 354 ming soʻmlik esdalik sovgʻalar taqdim etildi. Davlat ixtisoslashtirilgan maktab internatlar va maxsus maktab internatlar direktorlari tomonidan 84 nafar faxriylardan xabar olinib, faxriy yorliq va 6 mln. 157 ming soʻmlik esdalik sovgʻalari topshirildi.[11]

Bizga maʼlumki, ikkinchi jahon urushining suronli yillarida oʻzining mehnati bilan front va front orqasida juda koʻplab vatandoshlarimiz fidoiylik namunalarini koʻrsatganlar. Ularning eson-omon qaytganlari ham hozirgi kunda juda kamayib bormoqda. Eng oxirgi aniq tahlillar va hisob-kitoblarga koʻra juda koʻplab vatandoshlarimiz frontga borganligi aniqlandi

Oʻzbekistondan 1 mln.951 ming kishi urushga borgan. 451mingdan ortiq yurtdoshlarimizning nomlari va taqdiri esa shuncha yillar davomida eʼtibordan chetda qolgan. 538 ming oʻzbekiston fuqarolari urushda halok boʻlgan boʻlsa, 158 ming hamyurtlarimiz bedarak ketgan. Quloq qilingan va boshqa oʻlkalarga surgun qilingan 59 mingdan ortiq yurtdoshlarimiz ham urushda qatnashgan. Front orqasida ham Oʻzbekistonliklar buyuk jasorat koʻrsatdilar.

Ayniqsa, sanoat korxonalarining koʻchirib kelinishi halqimizning bardoshini yana bir sinovdan oʻtkazdi desak aslo mubolagʻa boʻlmaydi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev bu haqda gapirib: “Oʻsha olovli yillarda Oʻzbekistonda 7 yoshdan 70 yoshgacha butun halqimiz “Hamma narsa - front uchun, hamma narsa – gʻalaba uchun!” deb yashadi, orom va halovatdan voz kechib, tinimsiz ogʻir mehnat qildi [12]” degan edi.

2017 yil 7 fevralda qabul qilingan “2017-2021 yillarda Oʻzbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi”ning toʻrtinchi yoʻnalishi “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari” deb nomlangan boʻlib, unda pensionerlar, nogiron, yolgʻiz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining toʻlaqonli hayot faoliyatini taʼminlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam koʻrsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish masalalari ham oʻrin olgan boʻlsa, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”[13]gi PF-60-son farmonida ham bu masalalar izchil davom ettirilishi qaʼtiy belgilab qoʻyilgan.

2020 yil davlatimiz rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomasida keksalar, jumladan, yolgʻiz keksalar bilan ishlash, ularni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash boʻyicha yaxlit va taʼsirchan tizim yaratish zarurligi, bu toifa uchun ajratilayotgan ijtimoiy toʻlovlar miqdorini qayta koʻrib chiqish kerakligini alohida taʼkidlagan boʻlsa, joriy yil “Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni koʻra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi gʻayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, koʻzlagan marralarga albatta yetamiz. Nuroniy otaxon va onaxonlarimizni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashimiz ham qarz, ham farzdir”[14], degan qatʼiy chorlovlari bilan ularga boʻlgan yuksak ehtiromini namoyon etdi.

Shuningdek, respublika “Nuroniy” jamgʻarmasining moliyaviy imkoniyatlari yana-da kengaytirilishi, buning uchun ushbu jamgʻarmaga byudjetdan 100 milliard soʻm ajratilishi, oʻzgarlar parvarishiga muhtoj boʻlgan 16 mingdan ziyod keksalarga yordam berish, toʻlovlar miqdorini oshirish, koʻrsatiladigan ijtimoiy xizmatlar koʻlamini kengaytirish vazifalari ham belgilab berildi.

Oʻzbekiston aholisining qariyb oʻndan birinigina tashkil etayotgan keksa avlod vakillarining har biri nafaqat moddiy, balki maʼnan, ruhan ham qoʻllab-quvvatlanishga munosibdir. Maʼlumot

oʻrnida aytish joizki, 2020-yil soʻngida yurtimizda pensiya va nafaqa oluvchilarning umumiy soni 3 million 824 mingni tashkil etgan boʻlsa, ularning 2 849 118 nafari yoshga doir pensiya oluvchilar, 402 nafari Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, 15 nafari esa mehnat fronti faxriylaridir.

2020 yil mazkur oylik ilk bor mamlakatimiz boʻylab yuksak saviyada tashkil etilib, unga jami 56 ming 228 nafardan ortiq keksalar qamrab olindi. Ularning 10 151 nafari kam taʼminlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj nuroniylar ekani esa tadbirning ahamiyatini yana-da oshirdi[15].

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Inson qadrini ulugʻlash – yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini taʼminlash demakdir.

Muhtaram urush va mehnat faxriylarini, aziz ayollarimiz hamda yoshlarimizni qoʻllab-quvvatlash, koʻmakka muhtoj insonlarga gʻamxoʻrlik koʻrsatishga alohida eʼtibor beramiz”[16] deya alohida takidladilar.

2024 yilda Respublikamizdagi mavjud 8 ta Ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash markazlarida istiqomat qilayotgan 700 nafar va 16 ta “Muruvvat” internat uylarida istiqomat qilayotgan 1 ming 600 nafar nuroniylarning holidan xabar olinib, ularga sovgʻalar va ijtimoiy yordamlar tashkil qilinib, 2 044 nafar oʻzgalar parvarishiga muhtoj boʻlgan yolgʻiz keksalar sanatoriylarda bepul sogʻlomlashtirildi.

Keksa avlod vakillariga tibbiy xizmatlar koʻrsatish doirasini yanada kengaytirish maqsadida yurtimizning barcha hududlarida istiqomat qilayotgan 3 mln. 389 ming 666 nafar nuroniylar bepul chuqurlashtirilgan tibbiy tekshiruvdan oʻtkazildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, mehnat fronti faxriylari, oʻzgalar parvarishiga muhtoj boʻlgan yakka-yolgʻiz keksalar va yolgʻiz yashaydigan hamda kam taʼminlangan oilalarda yashaydigan 81 ming 348 nafar keksalar holidan xabar olinib, uy-joy sharoitlarini yaxshilash, tomorqalari va uylarida yoshlar bilan hasharlar oʻtkazish, shuningdek boshqa turli xayriya tadbirlari amalga oshirildi[17].

4. Хулосалар:

Xulosa sifatida shuni takidlash joizki, oʻtgan yillar mobaynida nuroniylarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash borasida erishilgan yutuqlar bisyordir va bu kabi ezgu ishlar bundan keyin ham yuksalishi muqarrardir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

- 1.OʻzR MDA M-15-fond, 1-roʻyxat, 91-ish, 120-varaq.
- 2.Qarang: Mustaqillik.Izohli ilmiy-ommabop lugʻat. - Toshkent: Sharq, 2006. - B. 455
3. Demokratlashtirish va inson huquqlari. - Toshkent, 2004. № 1. - B. 17.
- 4.Sahovat. - Toshkent, 2006. № 5-6. - B. 5.
- 5.Sahovat. - Toshkent, 2007. № 4-5. - B. 4.
- 6.Oʻzbekiston ovozi. 2009 yil 14 aprel
- 7.<https://lex.uz/docs/2718856>
8. <https://lex.uz/uz/docs/-3083192>
- 9.<https://lex.uz/docs/-4532381>
10. <https://lex.uz/docs/2898879>
- 11.Namangan viloyati xalq taʼlimi boshqarmasi Axborot xizmati materiallari.
- 12.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xotira va qadrlash kuniga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. 2019 yil 7 may.
- 13.<https://lex.uz/docs/58410636>.
14. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
15. Ijtimoiy hayot 14 Aprel 2021
- 16.Yangi Oʻzbekiston gazetasi. 2022 yil 1 yanvar.
17. Oʻzbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qoʻllab-quvvatlash “Nuroniy”jamgarmasi tomonidan 2024 yilda amalga oshirilgan ishlar boʻyicha hisoboti.

18. Ёрматов Ф. Янги ўзбекистонда аҳолини ижтимоий ҳимоялашнинг кучайтирилиши ва халқимиз ҳаётидаги муаммоларни бартараф этишдаги ўзгаришлар (2016-2021 йиллар) //взгляд в прошлое. – 2021. – т. 4. – №. 11.
19. Ёрматов Ф. Ж. Мустақиллик йилларида ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида аҳолининг ижтимоий ҳимояси //взгляд в прошлое. – 2019. – №. 25.
20. Ёрматов Ф. Ж. Ўзбекистонда аҳолини ижтимоий ҳимоялаш тизими: ҳолати, шаклланиш жараёни, ривожланиш истиқболлари (1991-2010 йиллар. Жанубий вилоятлар мисолида) : дис. – Doctoral dissertation, Автореф. дис.... т. ф. н. Тошкент, Мирзо Улуғбек Номидаги Ўзбекистон Миллий университети, 2010, 30 б, 2010.
21. Yormatov F. J., Abdurashidov A. A. Humanitarian policy of Uzbekistan in providing the well-being of our people //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 1470-1476.
22. Mamlakatimizda nuroniylarni ijtimoiy himoyalashga qaratilgan insonparvar siyosat. O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2025, [1/2/1]-b 82-84.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000